



UDK: 327(575):008

Madina XALILOVA,
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: xalilovamadina2000@gmail.com

Tarix fanlari nomzodi, dotsent A.Yaxshiyev taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN MADANIY DIPLOMATIYASI: YANGI BOSQICH SHAKLLANISHINI AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada XXI asr globalizatsiya va xalqaro aloqalarning rivojlanish davri bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda madaniy va gumanitar aloqalarning ahamiyati oshirmoqda. Shu jumladan madaniy diplomatiya davlatning tarixiy merosi, madaniy qadriyatlar va san‘at salohiyati orqali xalqaro obro‘ va hamkorlikni mustahkamlashning samarali vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasining yangi bosqichi, uning strategik yo‘nalishlari va mintaqaviy integratsiyaga ta‘siri ilmiy tahlil qilinadi. Maqola orqali madaniy diplomatiyaning amaliy shakllari va istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, madaniy diplomatiya, Markaziy Osiyo, tarixiy meros, mintaqaviy integratsiya davlat, shakllanish, yangi bosqich.

CULTURAL DIPLOMACY OF UZBEKISTAN WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA: THE SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A NEW STAGE

Annotation

The article examines the 21st century as an era of globalization and the development of international relations, in which the importance of cultural and humanitarian ties in interstate interactions is increasing. In particular, cultural diplomacy serves as an effective instrument for strengthening a state's international prestige and cooperation through its historical heritage, cultural values, and artistic potential. From a scholarly perspective, the article analyzes the new stage of Uzbekistan's cultural diplomacy with the countries of Central Asia, its strategic directions, and its impact on regional integration. The article also explores the practical forms and future prospects of cultural diplomacy.

Keywords: Uzbekistan, cultural diplomacy, Central Asia, historical heritage, regional integration, state, formation, new stage.

КУЛЬТУРНАЯ ДИПЛОМАТИЯ УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НОВОГО ЭТАПА

Аннотация

В статье рассматривается XXI век как эпоха глобализации и развития международных связей, в которой возрастает значение культурных и гуманитарных отношений в межгосударственных взаимодействиях. В частности, культурная дипломатия выступает эффективным инструментом укрепления международного авторитета и сотрудничества государства посредством его исторического наследия, культурных ценностей и художественного потенциала. В научном аспекте анализируется новый этап культурной дипломатии Узбекистана со странами Центральной Азии, её стратегические направления и влияние на региональную интеграцию. В статье также рассматриваются практические формы и перспективы развития культурной дипломатии.

Ключевые слова: Узбекистан, культурная дипломатия, Центральная Азия, историческое наследие, региональная интеграция, государство, формирование, новый этап

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va madaniy aloqalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev alohida ta‘kidlaganidek, “Markaziy Osiyo – O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishidir. Biz qo‘shni davlatlar bilan yaqin va do‘stona munosabatlarni rivojlantirishni eng muhim vazifa deb bilamiz”[1]. Mazkur yondashuv, ayniqsa, xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlikni tiklash, umumiy merosni asrash va targ‘ib qilish orqali yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi: “Bizni umumiy tarix, umumiy madaniyat, umumiy qadriyatlar birlashtirib turadi. Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash – bu bizning eng muhim vazifamizdir”[2]. Mazkur fikrlar O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasi yangi bosqichda

shakllanayotganini, bu jarayonda madaniy meros, tarixiy qadriyatlar va ma‘naviy aloqalar muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

XXI asrda globalizatsiya va xalqaro aloqalarning rivojlanishi bilan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarida, balki madaniy va gumanitar aloqalarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda[3]. Madaniy diplomatiya - davlatning o‘z madaniy resurslari, qadriyatlar va tarixiy merosi orqali xalqaro obro‘ va muloqotni mustahkamlash vositasi sifatida shakllanmoqda[4].

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, tarixiy va madaniy aloqalar orqali qo‘shni davlatlar bilan muloqotni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Mustaqillik yillarida mamlakatning tashqi siyosatida avvalo suverenitet va xavfsizlik masalalari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, 2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosati ochiqlik, hamkorlik va mintaqaviy integratsiya tamoyillariga asoslandi[5]. Bu esa O‘zbekistonning Markaziy

Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasini yangi bosqichga olib chiqdi[6].

Madaniy diplomatiya orqali O'zbekiston o'zining tarixiy merosi, san'at va ilmiy salohiyatini xalqaro maydonda targ'ib etmoqda. Shu bilan birga, u mintaqadagi xalqlar o'rtasida do'stlik, sivilizatsion birdamlik va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[7].

O'zbekistonning madaniy diplomatiyasi nafaqat xalqaro hamkorlik, balki ichki rivojlanish, yosh avlodni tarbiyalash va ilmiy almashinuv jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasi mavzusi dolzarb va ilmiy tahlil talab qiladigan soha hisoblanadi.

Madaniy diplomatiya – bu davlat tashqi siyosatida madaniy, tarixiy va gumanitar aloqalarni yo'lga qo'yish orqali xalqaro maydonda ijobiy imij yaratish va strategik manfaatlarni ilgari surish vositasi bo'lib, u “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasiga asoslanadi[8]. Jozef Nayning ta'kidlashicha, davlatning madaniy salohiyati orqali o'zining xalqaro nufuzini oshirishi va boshqalarga ta'sir o'tkazishi mumkin[9].

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasi masalasi zamonaviy siyosatshunoslik, tarix va xalqaro munosabatlar fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Xususan, madaniy diplomatiyaning nazariy asoslari J. Nay tomonidan ishlab chiqilgan “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi doirasida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Unga ko'ra, davlat o'zining madaniy salohiyati, qadriyatlar va siyosiy modeli orqali xalqaro maydonda ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonlari va O'zbekiston tashqi siyosatining evolyutsiyasi masalalari F. Tolipov, S. Sarayev, Sh. Mirsoatova kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlari mintaqaviy hamkorlikning siyosiy va gumanitar omillarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, madaniy diplomatiya integratsiyaning muhim komponenti sifatida baholanadi.

UNESCO hisobotlari va xalqaro tashkilotlar materiallarida madaniy merosni saqlash va uni diplomatik vosita sifatida qo'llash masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li merosi, tarixiy shaharlar va sivilizatsion markazlarning global miqyosda tan olinishi O'zbekiston madaniy diplomatiyasining muhim yo'nalishi sifatida qayd etiladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda e'lon qilingan mahalliy ilmiy maqolalarda O'zbekistonning 2016-yildan keyingi tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning faollashuvi, qo'shni davlatlar bilan madaniyat kunlari, ilmiy almashinuvlar va qo'shma loyihalar orqali mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash jarayonlari tahlil qilingan. Biroq mavjud adabiyotlarda aynan “yangi bosqich shakllanishi”ning kompleks, tizimli va strategik tahlili yetarli darajada umumlashtirilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, boshlang'ich yillarda tashqi siyosat suverenitetni mustahkamlash, ichki barqarorlikni ta'minlash va global maydonda obro' qozonish kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan edi. Shu davrda Markaziy Osiyo mintaqasida madaniy diplomatiya nisbatan cheklangan darajada namoyon bo'lgan, qo'shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar ustuvor bo'lgan[10]. Ammo 2016-yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosat strategiyasida ochiqlik, muloqot va hamkorlik tamoyillari asosiy yo'nalish sifatida belgilandi, bu esa madaniy diplomatiyaga alohida urg'u berilishiga turtki bo'ldi. Bu yondashuv mintaqaviy va global darajada O'zbekistonning yumshoq kuch salohiyatini oshirish,

qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro maydonda madaniy almashinuvni faollashtirishga sabab bo'ldi[11].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy diplomatiyasining yangi bosqichda shakllanish jarayonini kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi xalqaro munosabatlar nazariyasi, siyosatshunoslik hamda tarixiy tahlil tamoyillariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi tashkil etadi. Mazkur yondashuv davlatning madaniy salohiyati, qadriyatlar, tarixiy merosi va gumanitar tashabbuslari orqali xalqaro maydonda ta'sir o'tkazish imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning madaniy diplomatiyasi tashqi siyosatning mustaqil instrumenti sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy va gumanitar yo'nalishlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan integratsiyalashgan mexanizm sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv qo'llanilib, madaniy diplomatiya mintaqaviy integratsiya, xalqaro imij va sivilizatsion meros omillari bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Tarixiy yondashuv asosida O'zbekiston tashqi siyosatining mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan evolyutsiyasi o'rganildi hamda 2016-yildan keyingi bosqichning o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, komparativ tahlil usuli yordamida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy hamkorlik shakllari o'zaro taqqoslandi va ularning mintaqaviy integratsiyaga ta'siri baholandi. Kontent-tahlil metodidan foydalanib, rasmiy nutqlar, strategik hujjatlar, ilmiy manbalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi hamda asosiy konseptual yo'nalishlar aniqlab olindi.

Bugungi kunda madaniy diplomatiya O'zbekistonning tashqi siyosat strategiyasida siyosiy, iqtisodiy va gumanitar yo'nalishlar bilan birga integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Mamlakat turli platformalarda o'zining boy tarixiy merosi, san'ati, til va qadriyatlarini targ'ib qilib, xalqaro muloqotning vositasiga aylantirdi[12]. Masalan, 2017–2025-yillar davomida O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan madaniyat kunlari, san'at ko'rgazmalari, kino haftaligi va boshqa madaniy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etdi[13]. Bu tadbirlar xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni mustahkamlashga xizmat qildi hamda mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Tahlil va natijalar. Madaniy diplomatiya nafaqat rasmiy tashqi siyosat vositasi sifatida, balki ilmiy va ta'limiy hamkorlik orqali ham barqaror aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston universitetlari va ilmiy markazlari Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma ilmiy tadqiqotlar, talabalar almashinuvi va konferensiyalar o'tkazish orqali mintaqaviy integratsiyani kuchaytirmoqda. Shuningdek, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar O'zbekistonning tarixiy obidalarini restavratsiya qilish, saqlash va xalqaro miqyosda targ'ib qilishda muhim rol o'ynamoqda[14]. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar nafaqat milliy, balki mintaqaviy madaniy meros markazlari sifatida tanilib, madaniy diplomatiyaning samarali instrumentlariga aylandi[15]. Umuman olganda, O'zbekiston madaniy diplomatiyasi 2016-yildan boshlab mintaqaviy va global maydonda strategik asosda shakllanib, mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning madaniy diplomatiyasi tashqi siyosat strategiyasining ajralmas qismi sifatida xalqaro maydonda “yumshoq kuch”ni mustahkamlash, mintaqaviy birdamlik va xalqlararo muloqotni rivojlantirish

vositasiga aylangan. U orqali mamlakat o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, san'ati va qadriyatlarini jahon hamjamiyatiga namoyon etmoqda. Mazkur jarayon Buyuk Ipak yo'lining sivilizatsion merosi hamda Sharq va G'arbni bog'lab kelgan madaniy makon tajribasiga tayanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiya jamiyatlararo almashinuv va madaniyatlararo dialogni kuchaytiruvchi muhim instrument sifatida e'tirof etilib, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda ikki tomonlama madaniy, ilmiy va ta'limiy almashinuvlar mintaqaviy integratsiya hamda sivilizatsion birdamlikni mustahkamlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Madaniy diplomatiya doirasidagi tadbirlar, xususan madaniyat kunlari, xalqaro san'at festivallari hamda qo'shma ilmiy loyihalar respublikaning xalqaro aloqalar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash va

mintaqaviy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga yordam beradi[16].

Tahlil va natijalar. Shuningdek, O'zbekistonning UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi uning madaniy diplomatiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik orqali tarixiy meros, jumladan qadimiy shaharlar va sivilizatsion obyektlar saqlanib, ularning global tanilishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida nafaqat madaniy diplomatiya, balki turizm, iqtisodiy hamkorlik va ilmiy almashuvlarni ham yanada rivojlantiradi. Umuman olganda, O'zbekiston madaniy diplomatiyasi hozirgi kunda mintaqaviy va global maydonda mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish, xalqlar o'rtasidagi uzoq muddatli do'stlikni mustahkamlash va integratsiyani rivojlantirishda samarali instrument bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, san'at, madaniyat, tarix va ilm-fan orqali olib borilayotgan diplomatik aloqalar bu jarayonning asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Sarayev S. (2025). The Role of UNESCO in the Development of Cultural Diplomacy in Uzbekistan. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 510–512.
2. Mirsoatova Sh.F. (2022). Prospects for Implementation of Public Diplomacy in the Foreign Policy of the Republic of Uzbekistan. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 177–179.
3. Tolipov F. (2019). *Central Asia: Regional Integration and Uzbekistan's Foreign Policy*. Tashkent, 78–80.
4. Nye J. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: Public Affairs, pp. 12–13.
5. UNESCO (2019). *Culture and Diplomacy Report*. Paris: UNESCO Publishing, pp. 101–103.
6. Saraev S. (2025). "Regional Cooperation in Cultural Diplomacy in Central Asia: Challenges and Opportunities", *Development and Innovations in Science*, pp. 92–94.
7. Sayfullayev D., Akbarov S. (2025). "Uzbekistan – TURKSOY: Development of Cultural Diplomacy to Promote the Great Heritage of Ancestors", *Oriental Journal of Social Sciences*, pp. 214–216.
8. Khamdamova S. (2025). "Buyuk Ipak Yo'li - madaniyatlar, tarix va san'atni bog'lovchi yo'l". *Tamaddun Nuri Jurnal*.
9. Rabbimov O.T. (2025). O'zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiya
10. Nadjimov F. (2025). "Madaniy diplomatiya va mintaqaviy integratsiya: O'zbekiston-Qozog'iston hamkorligi"
11. Ergasheva G. (2023). "Xalq diplomatiyasi – mintaqaviy hamkorlikning muhim faktori". *Scienceweb*.
12. Khamdamova S. (2025). "Buyuk Ipak Yo'li - madaniyatlar, tarix va san'atni bog'lovchi yo'l". *Tamaddun Nuri Jurnal*.